

SHARQ MASH'ALI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

3
2024

*Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lifan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yidan chiga boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinnbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponianing Tsukuba univ. prof.)
LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroiuning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 3, 2024-yil

<p style="text-align: center;"><i>Adabiyotshunoslik</i></p>	<p>Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари 3</p> <p>Ахмедова Ш. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати 10</p> <p>Гафурова Х. Изучение литературного жанра ута-моногатари в современной науке Японии 15</p> <p>Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi 23</p> <p>Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi 30</p> <p>Qalandarov M., Xushnazarova G. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy "Lub ul bob-masnnaviy" hamda Odina Eshonning "Miftoh ul-astor" asarlarining ilmg'a oid qismlari tahlili 41</p> <p>Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari 50</p>
<p style="text-align: center;"><i>Tilshunoslik</i></p>	<p>Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklar 58</p> <p>Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyining الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyyah" asarining struktur va semantik tahlili 65</p> <p>Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi 78</p> <p>Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German. (second year language University) 89</p> <p>Giyazova B. Ma'budalar - Sarasvati, Lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarning sinonimik (jihatdan) tahlili 95</p> <p>Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi 104</p>

<p>Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA</p> <p>Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.</p> <p>Jurnal original-maket asos’ida bosildi. Sharq mash’ali, 2024 yil 3-soni. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p>	<p>Tarix</p> <p>Tashqi siyosat</p> <p>Tarjima</p>	<p>Madraimov A., Madraimov A. Tarixchi G‘iyosiddin Xondamirning Boburshunoslikka qo‘shgan katta hissasi 114</p> <p>Karimov N. “Navodir al-usul” asarida islom psixologiyasining yoritilishi 121</p> <p>Hasan N. Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar tarixida tutgan o‘rnini haqida 127</p> <p>Mirzoraximov A. Kitobat va uning rivojlanish bosqichlari 136</p> <p>Alizade O. Tamgalarla Türk Rakamlarının Oluşturulması 141</p> <p>Sadibaqosev H. Markaziy osiyo davlatlarining xavfsizlik borasida AQSH va xitoy bilan hamkorligi 151</p> <p>Rizayev A. Saudiya Arabistonining xalqaro- siyosiy identikligi 158</p> <p>Аллахвердиева Л. Развитие магистерского образования в Азербайджане в процессе интеграции в европейское высшее образовательное пространство 165</p> <p>To‘xliyev B. Ajdoddlardan kelgan o‘gitlar (Davomi. Boshi o‘tgan sonda.) 174</p>
---	--	--



KONSEPT: TUSHUNCHASI, TARIXI VA MASALANING DIAKRONIK QO'YILISHI

SAIDOV UMIDBEK

Tayanch doktoranti, TDSHU

Annotatsiya: Bugungi davrda inson-til-tafakkur uchligini o'rghanishga qaratilgan tadqiqotlar filologiyada markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Bunday turdag'i tadqiqot obyektlaridan biri bo'lgan "konsept" hodisasiga e'tibor, aniqla, yuqori. Ushbu maqola ham "konsept" tushunchasiga bag'ishlangan bo'lib, bunda bir qancha masalalalarga e'tibor qaratilgan:

birinchidan, "konsept" hodisasiga turli akademik manbalar asosida, atroflicha va bataffsil izoh berilgan.

ikkinchidan, "konsept" tushunchasining akademik tadqiqotlar sifatida shakllanishdagi bosib o'tgan yo'li, kimlar va qachon, qanday masalalar doirasida ushbu hodisa haqida tadqiqot olib borgani turli manbalarga suyangan holda tahlil qilingan.

uchinchidan, "konsept" XX asr tilshunosligida qanday masalalar doirasida shakllangani ko'rib chiqilgan.

Inson tafakkurining tizimli-mazmun resurs birligi sifatida xizmat qiladigan ushbu hodisaga qiziqish o'zbek filologiyasida ham sezilari darajaada oshgan. Shunday bo'lsa-da, konsept tushunchasining negizi, uning kelib chiqishi, qanday qilib falsafa va kognitiv tilshunoslik kabi inson tafakkurini o'rghanishga qaratilgan fanlardagi markaziy masalalardan biriga aylanganligi haqidagi ma'lumotlarda bo'shlqlar mavjud. Bunday kengaytirilgan tahlil esa so'nggi yillarda konsept masalasiga bag'ishlangan o'zbek tilidagi risola, dissertasiya va maqolalarda mavjud bo'shlqn to'ldirishga qaratilgan. Aytilgan bo'shlqlar mavjudligiga yaqqol bir ishora sifatida "konsept" terminining o'zbek tilidagi muqobili sifatida "tushuncha" degan so'zning ishlatilishi. Bu kabi xato o'xshatish mavjudligi, konseptlarning inson tafakkuri va tildagi tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar to'liq emasligining natijasi deb bilamiz. Bu maqola esa konsept hodisaning tadqiqot obyekti sifatida o'r ganilishi bilan bog'liq kamchiliklarni, ya'ni, qanday hodisa ekanligi, qanday sohalarda va qanday masalalar doirasida shakllangani, hozirda va kelajakda yana qanday tadqiqotlar uchun imkoniyatlar ochiq turganini tushunishga qaratilgan bir urinishdir.

Kalit so'zlar: konsept, universaliyalar, falsafa, kognitiv yondashuv, mantiqiy (falsafiy) yondashuv, madaniy yondashuv, idrok konsepti, badiiy konsept, metafora.

Аннотация: В современную эпоху исследования «троицы» человек-язык-мышление занимают центральное место в филологии. Особое внимание уделяется феномену «концепт», который является одним из объектов таких исследований. Настоящая статья посвящена понятию «концепт», и в ней рассматриваются следующие вопросы:

во-первых, дается расширенное академическое толкование явления «концепт» на основе различных академических словарей.

во-вторых, опираясь на различные источники, проводится анализ истории вопроса; когда и как понятие «концепт» сформировалось как объект академических исследований, кто и когда занимался изучением этого явления, и какие вопросы при этом ставились.

в-третьих, рассматривается вопрос о том, рамках каких проблем концепт формировался в лингвистике XX века.

SHARQ MASJ'ALI

Интерес к этому явлению как структурно-содержательной ресурсной единице мышления человека значительно возрос и в узбекской филологии. Тем не менее, существуют пробелы в информации о том, что такое концепт в своей сущности, как сформировалось понятие концепта, как оно стало одной из центральных проблем таких когнитивных наук, как философия и когнитивная лингвистика, ориентированных на изучение человеческого мышления. Подобный расширенный анализ данного явления направлено на восполнение этих пробелов, которые прослеживаются в монографиях, диссертациях и статьях написанные на узбекском языке. Одним из наглядных примеров подобного рода пробелов является использование слова «тушунча» (понятие) как эквивалента термина «концепт». Такое ошибочное отождествление можно считать результатом недостатка информации о роли концептов в мышлении и языке человека. Данная статья является попыткой восполнить существующие пробелы в изучении концепта как объекта исследований, дав исчерпывающее толкования данного феномена, также объяснить в каких областях науки и рамках каких вопросов он формировался. Может быть, в таком анализе можно будет увидеть, какие перспективы ожидаются для будущих исследований.

Ключевые понятия: концепт, универсалии, философия, когнитивный подход, логический (философский) подход, культурный подход, концепты познания, художественный концепт, метафора.

Abstract: In the modern days, the study of the "trinity" of human-language-cognition occupies a central position in philology. Special attention is given to the phenomenon of the "concept," which has become one of the focal objects of such research. This article is dedicated to the notion of "concept" and addresses the following issues:

First, an expanded academic interpretation of the phenomenon of "concept" is provided based on various academic dictionaries.

Second, relying on different sources, an analysis of the history of the concept is conducted, examining when and how the notion of "concept" emerged as an object of academic research, who studied this phenomenon, and what questions were raised in the process.

Third, the paper explores how the concept was developed within the framework of certain problems in 20th-century linguistics.

Interest in this phenomenon as a structural and content-based unit of human cognition has significantly increased in Uzbek philology as well. However, there are gaps in the understanding of what a concept is in essence, how the notion of concept evolved, and how it became one of the central issues in cognitive sciences, such as philosophy and cognitive linguistics, which focus on the study of human cognition. This extended analysis of the phenomenon aims to fill these gaps, which are evident in monographs, dissertations, and articles written in the Uzbek language. A clear example of such gaps is the use of the word "tushuncha" (idea) as an equivalent of the term "concept". This mistaken identification can be seen as a result of a lack of information regarding the role of concepts in human cognition and language. This article is an attempt to bridge the existing gaps in the study of the concept as a research object by providing a comprehensive interpretation of this phenomenon and explaining the areas of science and the research questions within which it has been formed. Such an analysis may offer insights into the future prospects of research on this topic.

Key words: concept, universals, philosophy, cognitive approach, logical (philosophical) approach, cultural approach, concepts of cognition, literary concept, metaphor.

Kirish. Konseptning o‘rganilganlik darajasi haqida O.Anorqulova shunday yozadi: “G‘arb tilshunosligida keyingi yillarda “konsept”, “konseptosfera” bilan bog‘liq izlanishlar olib borishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Ular orasida rus, ingliz tilshunosligida amalga oshirilgan

ishlar talaygina”¹. Rostdan ham, g‘arb dunyosida konsept tushunchasi XXI asr tilshunosligining markaziy masalasidan biri bo‘lsa-da, bu hodisaning o‘rganilish tarixi XX asrdan boshlanadi. XX asrda inson tafakkurini o‘rganishni maqsad qilgan, xususan, kognitiv lingvistika, mantiqiy (falsafiy) lingvistika, semiotika kabi tilshunoslik fanlari qaror topgandan so‘ng, konsept hodisasiga tadqiqot obyekti sifatida e’tibor oshadi. Shunday bo‘lsa-da,adolat o‘rnida aytish joizki, g‘arb dunyosida kopsept hodisasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda rus tadqiqotchilarining tutgan o‘rni shubhasiz ustun. Bunda Askoldov (1928), Pavilyonis (1983), Arutyunova (1991), Kubryakova (1997), Lixachov (1993), Stepanov (2007), Karasik (2002) kabi o‘nlab, konseptni turli; mantiqiy, kognitiv va madaniy masalalar doirasida o‘rgangan olimlarni misol qilib keltirish mumkin. Ingliz tilshunosligidagi konsept bilan bog‘liq tadqiqotlar, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Misol uchun, Homskiy (1957), Lakoff, Jonson (1980), Talmy (1988), Ellis, Hunt (1993), Jakendoff (1993) kabi olimlarni misol qilib keltirish mumkin.

Jahon filologik tadqiqotlarda konsept hodisaga qiziqish oshgan davrda, o‘zbek tadqiqotchilarini ham bu masalada sezilarli natijalarga erishishmoqda. Misol tariqasida yana quyidagi tadqiqotchilarning ishlarini keltirish mumkin:

1. Safarov S.SH., “Kognitiv tilshunoslik”²,
2. Safarov S.SH., “Kognitiv tarjimashunsolikning nazariy asoslari”³
3. Abduxamidova D.A., “Yapon tilida qarindosh urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarda “家[IE]-UY” konsepti”⁴,
4. Abduraimova B. I., “Kongnitiv tilshunoslik va lingvomadaniy konsept tushunchasi”⁵,
5. Karimova S.S., “Baxt” konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida)”⁶,
6. Muminova M.A., “O‘zbek va ingliz tillaridagi “Vaqt” konseptli birliklarning lingvokultorologik xususiyatlari”⁷,
7. Raxmonova Y., “Konsept tushunchasi”⁸,
8. Shakirova S., “The concept of language and culture in present”⁹
9. Shamsiyeva B.B., “Tarjima matni madaniyat transferi sifatida “Natsume Sousekining “Qalb” asari asosida”¹⁰.

¹Anorqulova O. N. O‘zbek tilida “Ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini PhD dissertatsiyasining avtoreferati. Samarqand, 2023, 47b.

²Safarov S.SH. Kognitiv tilshunoslik. Ilmiy risola, “Sangzor” nashiryoti. Jizzax, 2006.

³Safarov S.SH. Kognitiv tarjimashunsolikning nazariy asoslari. monografiya, “Sangzor” nashiryoti. Jizzax, 2020.

⁴Abduxamidova D.A. Yapon tilida qarindosh urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarda “家[IE]-UY” konsepti PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2023. 160b.

⁵Abduraimova B. I. [Scientific progress, Volume 3, Issue 2]. «Kongnitiv tilshunoslik va lingvomadaniy konsept tushunchasi». Toshkent, 2022, 1223 – 1228b.

⁶Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida) PhD dissertatsiyasining avtoreferati. Buxoro, 2023.

⁷Muminova M.A. O‘zbek va ingliz tillaridagi “Vaqt” konseptli birliklarning lingvokultorologik xususiyatlari PhD dissertatsiyasining avtoreferati. Toshkent, 2024.

⁸Raxmonova Y. [Xorijiy tillar va lingvistika jurnali” № 5, 5-jild]. Konsept tushunchasi, Jizzax: TDTU, 2023. <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/8036>

⁹Shakirova S. [Xorijiy tillar va lingvistika jurnali” № 5, 5-jild]. The concept of language and culture in present, Jizzax: TDTU, 2023. <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/8080>

¹⁰Shamsiyeva B.B. Tarjima matni madaniyat transferi sifatida “Natsume Sousekining “Qalb” asari asosida PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2022. 158b.

SHARQ MASJ'ALI

O‘zbek tilida konsept bilan bog‘liq tadqiqotlar soni ko‘paygan bo‘lsa-da, ushbu hodisaning kengaytirilgan akademik izohi, ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilish tarixi va masalaning diaxronik qo‘yilishi bilan bog‘liq holat, haligacha, yoritib berilmagan. Vaholanki, g‘arb ilmida konsept degan hodisaning tabiatini tushunishga qiziqish Antik davrlardan boshlab, milodiy XII asrda ham, XIV asrda ham, XVII asrda ham, XIX asrda ham bo‘lganligini ko‘rsatuvchi ilmiy manbalar yetarlicha. XXI asrga kelib, konsept hodisa sifatida filologik ilmlarda keng o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, uning boshlang‘ich nazariy asoslari falsafiy masalalar doirasida shakllangan. Ya’ni, konsept, birinchi navbatda, filologiya uchun o‘zlashtirma termin. Hozirda, ushbu hodisa tilshunoslik, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik masalalari doirasida o‘ganilayotgan bo‘lsa-da, lekin uning nazariy asoslari filologik emas. Bu esa, ushbu hodisani o‘rganishda nafaqat filologik manbalarga, balki, falsafiy manbalarga ham murojaat qilish kerak degan masalani qo‘yadi.

Yuqorida keltirilgan sabab bilan bog‘liq *3ta maqsad* ko‘zlangan:

1. turli akademik lug‘atlardagi izohlarga asoslangan holda, konsept tushunchasiga kengaytirilgan izoh berish;
2. konsept tushunchasi gumanitar fanlar obyekti sifatida o‘rganilish tarixini tahlil qilish;
3. ushbu hodisa filologik fanlar obyekti sifatida qanday masalalar doirasida o‘ganilganligini tahlil qilish.

Ushbu qo‘yilgan maqsadga yetish uchun quyidagi bajarilishi kerak bo‘lgan *vazifalar*:

1. ingliz, rus, yapon tillaridagi akademik lug‘atlar; ensiklopediya, falsafiy terminlar lug‘ati, kognitiv terminlar lug‘ati, izohli lug‘atlar asosida “konsept” tushunchasiga atroficha izoh berish;
2. turli ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida konsept tushunchasi qaysi davrdan boshlab tadqiqot obyektiga aylangani va bu hodisani o‘rgangan olimlarni aniqlash;
3. birlamchi manbalar asosida konsept filologik tadqiqotlar obyekti sifatida qanday masalalar doirasida o‘ganilganini tahlil qilish va xulosa berish.

Ushbu maqolani yozishda *qiyosiy tahlil* va *deskriptiv tahlil usullaridan* foydalanilgan. Qiyosiy tahlil mavjud manbalardagi ma’lumotlarni qiyoslash va umumiy xulosaga kelishga qaratilgan. Deskriptiv tahlil esa mavjud manbalardagi ma’lumotlarni tushunish va ulardagи mazmunni yuzaga chiqarishga qaratilgan. Bunday tahlil usullari shu jahon tadqiqotlarida mayjud konsept tushunchasi, o‘rganilish tarixi va masalaning diaxronik qo‘yilishi haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Konsept haqida Britannika ensiklopediyasida bunday deyilgan:

“Concept (Lat. *concepius*, a thought, from *concipere*, to take together, combine in thought; Ger. Begriff), in philosophy, a term applied to a general idea derived from and considered apart from the particulars observed by the senses. The mental process by which this idea is obtained is called abstraction. (Konsept (Lot. *conceptus*, tushuncha, *concipere* degan so‘zdan olingan, jamlash, tushunchaga birlashtirish; nems. Begriff “konsept”), falsafada, sezgilar asosida turli xususiy kuzatuvlardan olingan umumiy fikrga ishlatalidigan termin. Idrok jarayonida olingan bu g‘oya yoki tushunchalar abstraktsiya deb nomlanadi.”¹

Yapon tilining falsafiy terminlar izohli lug‘atida konsept haqida shunday deyilgan:

¹The reader’s guide to the Encyclopedia Britannica Volume 6 [The encyclopedia Britannica Company]. Available at: <https://archive.org/details/encyclopaedia-britannica-all-volumes/Encyclopaedia> (accessed 2024.10.05)

*barcha tarjimalar muallif tomonidan, pragmatik mazmunda berilgan.

SHARQ MASH'ALI

概念《concept》形式論理学で、事物の本質をとらえる思考の形式。個々に共通な特徴が抽象によって抽出され、それ以外の性質は捨象されて構成される。内包と外延をもち、言語によって表される¹。

Tarjimasi: Konsept – rasmiy mantiqshunoslikda, biron narsa-hodisaning mohiyatini anglay oladigan idrok shakli. Turli narsa-hodisalardagi umumiy belgilarni abstraktsiyalashtirib, umumiyyadan tashqari bo‘lgan jihatlarini e’tibordan chetda qoldirgan holda strukturlashtirish. Kanotativ va denotativ xususiyatiga ega bo‘lib, tilda aks etgan bo‘ladi.

Kembrij falsafiy terminlar lug‘atida konseptga quyidagicha izoh berilgan:

"Concepts are mental representations, often called ideas, serving their classificatory function presumably by resembling the entities to be classified."²

Tarjimasi: Konseptlar bu o‘zlarining tasniflovchi vazifalaridan kelib chiqib obyektlarning taxminiy umumiyligi asosida ularni tasniflash uchun xizmat qiladigan, ko‘pincha tushunchalar yoki g‘oyalari deb nomlanadigan idrok birliklari.

Rossiya katta ensiklopediyasida quyidagicha izoh berilgan:

“Концепт (от лат. *conceptus* – схватывание, понятие), структурно-содержательная единица сознания, отражающая совокупность знаний, представлений, мнений об объекте мысли.”³

Tarjimasi: Konsept (lot. *conceptus* – ilg‘ab olish, tushuncha) tafakkurning struktur mazmunga ega birligi bo‘lib, idrok obyekti haqidagi fikrlarni, tasavvurlarni, bilimlarni aks ettirgan birligi.

“Концепт (concept; Konzept) – термин, служащий объяснению единиц ментальных или психических ресурсов нашего сознания и той информационной структуры, которая отражает знание и опыт человека; оперативная содержательная единица памяти, ментального лексикона, концептуальной системы и языка мозга (*lingua mentalis*), всей картины мира, отраженной в человеческой психике.”⁴

Tarjimasi: Konsept – tafakkurimizning mental (ongli) yoki psixik (hissiy) resurs birliklarini, hamda, inson bilimlari va tajribasini aks ettirgan ma'lumotlar strukturasini, ya'ni xotiraning operativ (tezkor) mazmun birligi, ongning lug'aviy boyligi, konseptual sistemasi va ongimizdagi til (lingua mentalis) strukturasini tushuntirishga qaratilgan termin.

Rus tilining katta akademik lug‘atida bunday izoh berilgan:

“Концепт – основная, главная мысль чего-л.; основное теоретическое понятие, принцип.”⁵

Tarjimasi: Konsept – nimadir haqidagi asosiy, bosh fikr; asosiy nazariy tushuncha, tamoyil.

Ingliz tilining izohli lug‘atida esa quyidagicha izoh berilgan:

¹ 廣松・渉・子安・宣邦・宮本・久雄・佐々・木力・野家・啓一「哲学・思想事典」岩波書店・日本、1998, 1929b.

² Audi R., The Cambridge dictionary of philosophy second edition. [Cambridge university press] – USA, 1999, 1001 b.

³ Большая российская энциклопедия 2004 – 2017. [цифровая энциклопедия Министерство культуры Российской Федерации]. Available at: <https://old.bigenc.ru> (accessed 2024.10.05)

⁴ Kubryakova Y.S. Краткий словарь когнитивных терминов. [Московский государственный университет]. Moskva, 1997

⁵ Gorbatchevich K.S. Большой академический словарь русского языка Том 8 [Российская академия наук (РАН) Издательство «Наука»]. Санкт – Петербург, Москва, 2007

SHARQ MASJ'ALI

“Concept – an idea of something formed by mentally combining all its characteristics or particulars; a construct”¹

Tarjimasi: Konsept – biron-bir narsaning barcha xususiyatlari yoki tafsilotlarini tafakkurda birlashtirgan tushuncha; konstrukt.

Kerevicheni tahriri ostidagi “Kongnitiv terminlar glossariysi” nomli manbada konsept haqida shunday deyilgan:

Concept: a unit of cognitive experience; a way people have of abstracting over their experiences in the world. The core meaning of a word; the set of entities or events in the real world which a word is understood to refer to².

Tarjimasi: Konsept – kognitiv tajriba birligi, ya’ni, hayoti davomida orttirgan tajribalarni abstraktlashtirish yo’li. Bu so‘zning ildiz ma’nosи – so‘zda ifodalangan real dunyodagi narsa, hodisa va voqealarning to‘plami.

Wikipedia ensiklopediyasida quyidagicha izoh berilgan:

A concept is an abstract idea that serves as a foundation for more concrete principles, thoughts, and beliefs. Concepts play an important role in all aspects of cognition. As such, concepts are studied within such disciplines as linguistics, psychology, and philosophy, and these disciplines are interested in the logical and psychological structure of concepts, and how they are put together to form thoughts and sentences. The study of concepts has served as an important flagship of an emerging interdisciplinary approach, cognitive science³.

Tarjimasi: Konsept – mavhum g‘oya bo‘lib, aniqroq bo‘lgan tamoyillar, tushunchalar va e’tiqodlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Konseptlar tafakkurning barcha jabhalarida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, konseptlar tilshunoslik, psixologiya va falsafa kabi fanlarda o‘rganiladi va bu fanlarda konseptlarning mantiqiy va psixologik strukturasiga va ular qanday qilib birlashib tushunchalar va gaplarni shakllantirishiga qiziqish bor. Konseptlarni o‘rganish tafakkur ilmida rivojlanib borayotgan fanlararo hamkorlikning muhim birligidir.

Rus, ingлиз, yapon tillaridagi lug‘atlarda konsept haqida turlicha ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, ammo ulardagи mazmunni quyidagicha qilib birlashtirsa bo‘лади:

a. Konsept – tafakkurning bir turdagи buyum yoki hodisalar o‘rtasidagi umumiyligini ko‘ra bilish yoki aniqlash orqali yagona tushunchaga birlashtira olish va tilda aks ettirish qobiliyatini ifodalagan termin.

b. Konsept – insonning kognitiv qibiliyatini uchun, ham hissiy, ham aqliy resurs birligi sifatida xizmat qiladi. Bunday resusr birliklari insonning dunyo haqidagi tajribasini tizimlashtirishga yordam beradi.

c. Konsept – tezkor xotira birligi sifatida, yangi bilimlarni eski bilimlar asosida, obrazlar orqali, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

d. Konsept – tafakkurimizning tizimli-mazmun birligi bo‘lib, idrok obyekti haqidagi barcha bilim, tajriba va fikrlarni o‘zida jamlagan bo‘лади.

Lekin, bu termin qachondan gumanitar fanlarda tadqiqot obyektiga aylandi? Inson tafakkuridagi bunday xususiyatni ilg‘ab, uni o‘rganishni maqsad qilgan birinchi tadqiqotchilar kimlar bo‘лган?

¹ World English Dictionary. Avialable at: <https://www.dictionary.com/browse/Concept> (accessed 2024.09.22)

² Kerevicheni Y. Glossary of cognitive terms [Vilnus univeristy press] – Kaunas, 2009

³ Wikipedia.com. Avialable at: <https://en.wikipedia.org/wiki/Concept> (accessed: 2024.09.22)

SHARQ MASJ'ALI

Bu masala haqida Y.S. Stepanov shunday yozadi: “Tilni mantiqiy tahlil qilish Yevropada Aristotel va stoiklardan boshlangan.”¹ Demak, tabiatdagi turli hodisalarni yagona tushuncha bilan ifodalay olish hodisasiiga Antik davrlarda ham qiziqish bo‘lgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

S.A. Askoldov esa, bu hodisaga qiziqish Yevropaning o‘rta-asr faylasuflarida ham bo‘lgan deb yozadi: “Umumiy tushunchalar yoki konseptlarning tabiat haqidagi masala – o‘rta-asr terminologiyasida universaliyalar – navbatini kutib turgan, juda eski masaladir.”²

L.A. Kasyan va A.Y. Bagomolova, T.S. Bochkaryovalar V.V. Vorobyovga iqtibos keltirib shunday yozishadi: “Konsept” termini adabiyotshunoslik, falsafa, tilshunoslik, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi gumanitar fanlarda o‘rganilayotgan zamonaviy termin bo‘lsa-da, bu hodisa bilan bog‘liq falsafiy qarashlar o‘rta asrlardan boshlangan. XII asr faylasufi Pyer Abelyar, talaffuz qilinayotgan nomlar, tabiatdan ular ifodalagan narsaning bir qismi bo‘lib emas, balki, shu tilda so‘zlashuvchilar narsalarga “qo‘yanligi” uchun mavjuddir, deb hisoblagan. Mana shu “nom qo‘yish” qobilyati insonlarga Xudo tomonidan berilgan in’om deydi. Va yana nomlar buyumlarni anglash vositasi bo‘lib, o‘z mohiyatidan insonlar hamda inson va Xudo o‘rtasidagi muloqot konteksti doirasida ko‘rilgan. Abelyarga ko‘ra konsept ma’noga tenglashtirilgan. XIV asrda nom, mavhum g‘oya va xususan buyum o‘rtasidagi bog‘lovchi aloqa nimaligi haqida realistlar va nominalistlar o‘rtasida bahs ketadi. Bir – biriga diametal zid bo‘lgan qarashlar o‘rtasidagi bahslar, falsafada “konseptualizm” deb tanilgan “mo‘tadil nominalizm”ning paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘rta asr falsafasida konseptlar ma’lum ma’noviy vazifani bajaruvchi, o‘ziga xos “psixologik shakl”ga ega nomlar deb e’lon qilindi.”³

Y.V. Surjanskaya “Konsept falsafiy tushuncha sifatida” nomli maqolasida shunday yozadi: “Konsept masalasi – insonlar qanday fikrashi bilan bog‘liq masala. ... Bu masala ustida Kant, Gegel, Ferge kabi faylasuflar bosh qotirishgan”.⁴ Surjanskaya o‘z maqolasida S.S. Neretinaga iqtibos keltiradi:

“Konsept tushunchasi O‘rta asrlar mumtoz falsafasida P. Abelyardan tashqari, Gilbert Porretanskiy, Foma Akvinskij, Dunsom Skotlar tomonidan ham rivojlantirilgan. Konsept o‘rta asr falsafasida yozilgan matn bilan emas, nutq bilan bog‘langan. Shu sababdan ham, grammatikadan tashqari nutqning barcha belgilarini va ma’nolarini o‘z ichiga olgan: gapiruvchining qo‘l harakatlari, yuz-chehra harakatlari, ohangi, nutq ritmi, aniqliklar va h.k.z.lar. Shunday qilib, konsept – o‘zining ijodiy tabiatini va o‘zgalarga bo‘lgan ijodiy ta’siri bilan, ijodiy ibtido deb ta’riflash mumkin. Konsept gapiruvchining qadriyatlari, qarashlari va ehtiyojlarini ifodalay olishi sabab subyektning qalbini o‘zgartira olishi mumkin”⁵.

Ma’lum bo‘lganidek, konseptlar Antik davr faylasuflari tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ammo, Yevropada o‘rta asrlarda mumtoz gumanitar falsafiy qarashlar doirasida shakllanib,

¹ Stepanov Y.S. [Логический анализ языка. Культурные концепты]. «Концепт Причина» и два подхода к концептуальному анализу языка – логический и сублогический Логический анализ языка». Moskva, 1991, 5-14 b.

² Askoldov S.A. [Русская речь]. “Концепт и слово”, Москва, 1928, 28-44 b.

³ Kasyan L.A. [Проблемы филологии]. «Термин «концепт» в современной лингвистике: различные его толкования» Yugorsk davlat universiteti, 2010, 50-53 b.,

Bagomolova A.Y., Bochkaryova T.S. [Вестник ОГУ №11]. «Сложность определения понятия «коцепт» и история его развития в научной теории», Orenburg davlat universiteti, 2014, 83-87 b.

⁴ Surjanskaya Y.V. [“Вестник ТГУ” №5(14)]. «Концепт как философское понятие», Tomsk davlat universiteti, 2011, 70-78 b.

⁵ Неретина С. С. Энциклопедия эпистемологии и философии науки. [Канон +; РООН «Реабилитация】], Moskva, 2009. 387-389 b.

rivojlangan tushuncha. Bu hodisa haqida fikr yuritgan faylasuflar – Pyer Abelyar, Gilbert Porretanskiy, Foma Akvinskiy, Dunsom Skot va boshqalar. Konsept masalasi nafaqat o‘rtasidagi faylasuflarini, balki Imanuil Kant, Georg Vilgelm Fridrix Gegel, Gotlob Ferge kabi yangi davr faylasuflarini ham qiziqtirgan. Albatta, bu olimlar konsept degan tushunchani inson tafakkuriga bog‘lasalarda, mohiyatdan bu hodisaga falsafiy ruhda yodashishgan. G‘arbda, xususan, nemis falsafasida konsept hodisasiga qiziqish XX asrda ham kuzatiladi. Misol uchun Edmund Gusserlning “Mantiqiy tadqiqotlar” nomli ilmiy ishnolar to‘plami (1900-1901) yoki Lyudvig Vittgenshteynning “Falsafiy tadqiqotlar” nomi ilmiy insholar to‘plami (1953).

Konsept hodisasi bilan bog‘liq nazariyalar falsafada shakllangan bo‘lsa, XX asrda tilning insoniy qiyofasiga bo‘lgan e’tibor oshgani sabab, uning tafakkuridagi jarayonlarni tilda aks etish hodisasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar paydo bo‘la boshlaydi. Kognitiv tilshunoslik va stukturallizm, konseptlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshishiga sabab bo‘ladi. Bu esa, konsept hodisasiga falsafiydan ham kengroq nazar bilan qarash imkonini berdi.

Konseptni, birinchi bo‘lib, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlilga bergan sovet (rus) olimi, S.A. Askoldov bo‘ladi. Askoldov “Konsept va so‘z” (1928) nomli maqolasida, konsept tushunchasiga hali ham aniq ta’rif berilmagani va uning tabiatini, inson tafakkuri bilan bog‘liqligi hali ham jumboqligi haqida yozadi. U konseptlarni 2 turga ajratib tahlil qiladi: “концепты познания” (idrok yoki anglash konsepti) va “художественные концепты” (badiiy konsept). Idrok konseptlari – umumiy, badiiy konseptlar – individual bo‘ladi deb hisoblaydi.

Idrok konseptlarini tushunishda 3 xil yondashish mumkinligini aytadi: gneosologik, individualistik va funksional. Lekin, gneosologik va individualistik yondashuvlar, ma’lum sabablarga ko‘ra, bu hodisaning tabiatini tushunishga va tahlil qilishga yaramasligini o‘z mantiqiy xulosasida keltirib o‘tadi. Askoldovga ko‘ra, konseptlarning tabiatini tushunish uchun, ular inson tafakkurida tutgan o‘rniga baho berish kerak. Bu haqida shunday yozadi: “Konseptlarning tabiatini tushunish uchun, ularning negiziga, anglash vositasi sifatidagi xususiyatiga e’tibor qaratish lozim. Konsept – fikrlar yig‘indisi bo‘lib, idrok qilish jarayonida, bir xil turdag‘i bir qancha narsalarni bir tushuncha bilan ifodalab beradi. Masalan, biron-bir o‘simgilik haqida qandaydir umumiy gap aytta turib, aslida, bizga ma’lum bo‘lgan yoki biz tasavvur qila oladigan barcha o‘simgiklarni nazarda tutayotgan bo‘lamiz”.

Badiiy konseptlar idrok konseptlaridan farqli irratsional bo‘ladi deb tarif beradi. Idrok konseptlaridan farqli badiiy konseptlarda tushunchalar, hissiyotlar, tuyg‘ular murakkab bir shaklda qorishgan bo‘ladi deydi¹.

Agar Askoldov aytgan fikrni tahlil qilib ko‘rsak, konseptlarni universal va individual deb atasiga bo‘ladigan ikki guruhga ajratib tahlil qilgan. Universal konseptlar – tilda mavjud umumlashtiruvchi tasavvur yoki tushunchalar bo‘lsa, bunga qarama-qarshi individual konseptlar, shaxsning tafakkuridagi tasavvur va tushunchalarni nazarda tutgan.

Konsept hodisasiga e’tibor qaratgan yana ikki amerikalik tilshunos olimlar – Jorj Lakoff va Mark Jonson. Ular “Hayotimizda mavjud metoforalar” nomli kitobida konsept hodisasi haqida shunday yozishadi: “Bizdagi oddiy konseptual sistema, ya’ni bizni qanday fikrlashimiz yoki harakatlanishimiz, o‘z asosida metaforik tabiatga ega. Konseptlar shunchaki aql bilan bog‘liq masala emas, ular hayollarimizni boshqarishadi. Va yana har kungi xatti-harakatlarimizni, eng mayda tafsilotlarigacha boshqarishadi. Biz nimani idrok etsak, konseptlar shuni strukturalaydi, dunyoni qanday tushunishimizni, qanday qilib boshqalar bilan aloqa o‘rnatishimizni. Bizdagi konseptual sistema har kungi voqe’ligimizni izohlashda markaziy rol o‘ynaydi. Bizdagi konseptual sistemani mubolag‘a qilib,

¹ Askoldov S.A. [Русская речь]. “Концепт и слово”, Москва, 1928, 28-44 б.

metafora deb ko‘radigan bo‘lsak, adashgan bo‘lmaymiz, bunday yondasahuv, bizning fikrlash uslubimizni ham, nimani his qilishimizni ham va biz har kuni qiladigan ishlarimizni ham metafora masalasi sifatida ko‘rish imkonini beradi.”¹

Konseptlarni metafora deb olish, ulardag'i ko‘chimlilik xususiyatidan kelib chiqadi. Bunday izoh esa, Askoldov aytgan “o‘rnbosarlik” nazariyasiga mos keladi.

Konsept hodisasiga chuqur e’tibor qaratgan yana bir olim Pavilyonis R.I. bo‘ladi. “Ma’no masalasi” nomli monografiyasida tildagi semantik qatlamni o‘rganishda konseptlarning o‘rnii haqida fikr yuritadi. Pavilyonis konsept hodisasiga tildagi semantik qatlamni strukturlashtiruvchi hodisa sifatida qaraydi va bu haqida shunday deydi: “Konsept – insonning fikrlash jarayonidagi ma’nolar haqidagi tasavvurga mos keluvchi, aytaylik, bilimlar “kvanti” ko‘rinishidagi, insonning butun hayoti davomida ortirgan dunyo haqidagi bilimlari va tarjibasining mazmunini aks ettirgan tushuncha. Konsept biron-bir obyekt va uning xususiyatlari haqida ma’lumot to‘playotganida yuzaga keladi.”² Avvalgi hamkasblaridan farqli Pavilyonis konsept hodisasini yangicha, mantiqiy (falsafiy) tahlilga berish kerak, degan nazariyani ilgari suradi.

1991 – yilda, N.D. Arutyunova, V.V. Petrov, N.K. Ryabtseva, V.A. Smirnovlarning tahriri ostida “Tilning mantiqiy tahlili. Madaniy konseptlar” nomli ilmiy to‘plam nashr etiladi. Ushbu to‘plamdag'i maqolalar konseptlarning mantiqiy va falsafiy tahliliga qaratilgan bo‘lib, ushbu tushunchalarni madaniyat konteksti nuqtayi-nazaridan o‘rganishga bag‘ishlanadi. Ushbu to‘plamda konseptlarni o‘rganish jarayonida ular ijtimoiy va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq ekanligi aytildi.

Yana bir rus tilshunosi D.S. Lixachov “Rus tili konseptosferasi” nomli ilmiy hisobotida konsept hodisasiga so‘zning lug‘aviy ifodasi hamda shaxsning va xalq tajribasining chatishishi sifatida qarashni taklif qiladi: “Konsept haqida gapirayotib uni inson omilidan ajratmasligimiz kerak. Konseptning imkoniyatlari insonning madaniy tajribasi bilan o‘lchanadi”,³ deb yozadi. Lixachovning fikricha “konseptosfera” degan termin, tilni shunchaki muloqot vositasi sifatida emas, balki biron-bir millatning turli aholi qatlamlaridagi madaniy-konsentranti sifatida ko‘rish imkonи beradi, deb yozadi.

Manbalar asosida ko‘rib chiqilganidek, XX asr tilshunosligida, konseptlar kognitiv yondashuv asosida, mantiqiy (falsafiy) yondashuv va madaniy yondashuv asosida o‘rganilgan.

Kognitiv yondashuv doirasida Askoldov konseptlarni turli tushunchalarning yagona o‘rnbosari sifatida tahlil qilish nazariyasini taklif qilib, ularni 2 turga ajratgan: “idrok konsepti” va “badiiy konsept”. Lakoff va Jonsonlar esa, konseptlarni metafora sifatida o‘rganish nazariyasini taklif qilishgan.

Mantiqiy yondashuv doirasida Pavilyonisning konseptlarni tildagi semantik qatlamning strukturlashtiruvchi birligi sifatida o‘rganish nazariyasi ham alohida e’tiborga loyiq.

Madaniy yondashuv doirasida Arutyunova, Lixachov, Stepanovlar konseptlarni tildagi ijtimoiy-madaniy hodisalarini o‘z ichiga jamlagan hodisa sifatida o‘rganish nazariyasini ilgari surishgan.

Xulosa. Konsept – taffakkurning, bir turdag'i buyum yoki hodisalar o‘rtasidagi umumiylikni ko‘ra bilish yoki aniqlash orqali yagona tushunchaga birlashtira olish va tilda aks ettirish qobiliyatini ifodalagan termin. Insonning kognitiv qobiliyatni uchun ham hissiy ham aqliy resurs birligi sifatida xizmat qiladi. Bunday resurs birlklari insonning dunyo haqidagi tajribasini tizimlashtirishga yordam beradi. Tezkor xotira birligi sifatida, yangi bilimlarni eski bilimlar asosida obrazlar orqali shakllantirish uchun xizmat qiladigan bilimlar “kvanti”. Tafakkurimizning tizimli-mazmun birligi bo‘lib, idrok

¹ Lakoff J., Jonson M. [Metaphors we live by]. Chicago university press, Chicago, London, 1980, 242b.

² Pavilyonis R.I. [Проблема смысла (современный логико-философский анализ языка)]. Издательство «Мысль», Москва, 1983, 287 b.

³ Lixachov D.S. [История русской литературы: пути изучения, проблемы периодизации]. «Концептосфера русского языка», Москва, 1992, 147-165 b.

SHARQ MASJ'ALI

obyekti haqidagi barcha bilim, tajriba va fikrlarni o‘zida jamlagan bo‘ladi. Fikrimizcha, hozirgina keltirilgan izohlarga suyangan holda, konseptning o‘zbek tilidagi muqobili sifatida “tushuncha” so‘zi bilan ifodalash, ushbu konseptga nisbatan haddan ziyod soddalashtirish bo‘ladi. Bunday soddalashtirish, konseptni kognitiv hodisa sifatidagi ahamiyatini va vazifalar doirasini qisqartirish va natijada bu hodisa haqida noto‘g‘ri xulosaga kelishga sabab bo‘ladi. Akademik ilmlarda doim aniqlikka intilinadi, umumiylashtirish esa, bunday tamoyilga zid. Agarda konseptning o‘zbek tilidagi muqobili sifatida ishlatalishi mumkin bo‘lgan termin mavjud bo‘lsa, u ham “tushuncha” emas “meta tushuncha” bo‘lishi kerak. Sababi, meta tushunchani xuddi konsept kabi bir turdagи bir qancha tushunchalarni o‘z ichiga qamrab olgan termin sifatida yuritish mumkin. Meta tushuncha yoki konsept inson tafakkurida tushuchalardan ko‘ra chuqurroq va kengroq bo‘ladi.

Inson tafakkuridagi bunday qobiliyatlari o‘rganish antik davrlardan Aristotel va stoiklarda bo‘lgan, keyinchalik bu masalaga o‘rta asr faylasuflari ham e’tibor qaratishgan. Agar o‘rta asr falsafasida bu qobiliyat ilohiy ma’noni insonga tushuntiruvchi “ne’mat”dek qabul qilingan bo‘lsa, keyinchalik, yangi davr faylasuflari tomonidan bu miyaning kognitiv qobiliyati sifatida fikrlay boshlangan.

Konsept kognitiv hodisa sifatida avvaliga falsafiy masalalar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, XX asrdan boshlab filologik sohalarda, ayniqsa, kognitiv tilshunoslikda ushbu hodisa bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar uning mohiyati haqida yana ham chuqurroq tasavvur beradi. Natijada konsept zamонави filologik ilmlarning markaziy masalalaridan biriga aylanib kognitiv, mantiqiy (falsafiy) va madaniy masalalar doirasida o‘rganiladigan obyektga aylangan. Bunday bo‘lishiga birlamchi sabab esa shu hodisaning tabiatini bilan bog‘likdir.

XXI asrda konsept masalasi batafsil va keng o‘rganilgan kognitiv hodisalardan biri bo‘lsa-da, bunday tadqiqotlar “idrok konseptlari” bilan bog‘liq bo‘lib, falsafiy, psixologik yoki lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Ammo, badiiy matnlarda aks etgan yozuvchining individual kognitiv struktur-mazmun birligini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar, ayniqsa filologik fanlardagi tarjimashunoslik sohasida hali ham o‘z navbatini kutib turgan masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduxamidova D.A. Yapon tilida qarindosh urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarda “家[IE]-UY” konsepti, PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2023, 160b.
2. Abduraimova B. I. [Scientific progress, Volume 3, Issue 2]. «Kongnitiv tilshunoslik va lingvomadaniy konsept tushunchasi». Toshkent, 2022, 1223 – 1228b.
3. Audi R., The Cambridge dictionary of philosophy second edition. [Cambridge university press] – USA, 1999, 1001b.
4. Askoldov S.A. [Русская речь]. “Концепт и слово”, Москва, 1928, 28-44 b.
5. Anorqulova O. N. O‘zbek tilida “Ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini, PhD dissertatsiyasining avtoreferati. Samarqand, 2023, 47b.
6. Bagomolova A.Y., Bochkaryova T.S. [Вестник ОГУ №11]. «Сложность определения понятия «коцепт» и история его развития в научной теории», Orenburg davlat universiteti, 2014, 83-87b.
7. Dictionary.com Aviable at: <https://www.dictionary.com/Concept> (accessed 2024.09.22)
8. Gorbachevich K.S. Большой академический словарь русского языка Том 8 [Российская академия наук (РАН) Издательство «Наука»]. Санкт – Петербург, Москва, 2007
9. Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasini misolida) PhD dissertatsiyasining avtoreferati. Buxoro, 2023, 54b.
10. Kasyan L.A. [Проблемы филологии]. «Термин «концепт» в современной лингвистике: различные его толкования» Yugorsk davlat universiteti, 2010, 50-53 b.,



SHARQ MASJ'ALI

11. Kubryakova Y.S. Краткий словарь когнитивных терминов. [Московский государственный университет]. Moskva, 1997
12. Kerevicheni Y. Glossary of cognitive terms [Vilnus university press] – Kaunas, 2009
13. Lakoff J., Jonson M. [Metaphors we live by]. Chicago university press, Chicago, London, 1980, 242b.
14. Lixachov D.S. [История русской литературы: пути изучения, проблемы периодизации]. «Концептосфера русского языка», Moskva, 1992, 147-165 b.
15. Muminova M.A. O‘zbek va ingliz tillaridagi “Vaqt” konseptli birliklarning lingvokultorologik xususiyatlari PhD dissertatsiyasining avtoreferati. Toshkent, 2024, 57b.
16. Raxmonova Y. [Xorijiy tillar va lingvistika jurnali” № 5, 5-jild]. Konsept tushunchasi, Jizzax, 2023. <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/8036>
17. Neretina S. S. Энциклопедия эпистемологии и философии науки. [Канон +; РООН «Реабилитация»], Moskva, 2009. 387-389 b.
18. Pavilyonis R.I. [Проблема смысла (современный логико-философский анализ языка)]. Издательство «Мысль», Moskva, 1983, 287 b.
19. Surjanskaya Y.V. [“Вестник ТГУ” №5(14)]. «Концепт как философское понятие», Tomsk davlat universiteti, 2011, 70-78 b.
20. Safarov S.SH. Kognitiv tilshunoslik. Ilmiy risola, “Sangzor” nashiryoti. Jizzax, 2006, 94b.
21. Safarov S.SH. Tarjimashunsolikning kognitiv asoslari. Monografiya, “Navro‘z” nashiryoti. Toshkent, 2020, 300b.
22. Stepanov Y.S. [Логический анализ языка. Культурные концепты]. «Концепт Причина» и два подхода к концептуальному анализу языка – логический и сублогический Логический анализ языка». Moskva, 1991, 5-14 b.
23. The reader’s guide to the Encyclopedia Britannica Volume 6 [The encyclopedia Britannica Company]. Available at: <https://archive.org/details/encyclopaedia-britannica-all-volumes/Encyclopaedia> (accessed 2024.10.05)
24. Shamsiyeva B.B. Tarjima matni madaniyat transferi sifatida “Natsume Sousekining “Qalb” asari asosida PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2022. 158b.
25. Shakirova S. [Xorijiy tillar va lingvistika jurnali” № 5, 5-jild]. The concept of language and culture in present, Jizzax: TDTU, 2023. <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/8080>
26. Wikipedia.com. Avialable at: <https://en.wikipedia.org/wiki/Concept> (accessed: 2024.09.22)
27. Большая российская энциклопедия 2004 – 2017. [цифровая энциклопедия]
28. Министерство культуры Российской Федерации]. Available at: <https://old.bigenc.ru> (accessed 2024.10.05)
29. 廣松・渉、子安・宣邦、宮本・久雄、佐々・木力、野家・啓一「哲学・思想事典」岩波書店。日本、1998, 1929 b.

